



## O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNING UZOQ MUDDATLI TENDENSIYALARI

**Umaraliyev Olimjon**

*Guliston davlat universiteti*

ORCID: 0009-0003-2457-1692

[olimjonumaraliyev8189@gmail.com](mailto:olimjonumaraliyev8189@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston hududlarida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishi, barqaror qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyat hamda boshqaruvi samaradorligi masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion model, samaradorlik, barqaror qishloq xo'jaligi, innovatsion g'oyalar, innovatsiya, infratuzilma, raqamli texnologiyalar, agroxizmat, fermer xo'jaligi, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy istiqbol.

## ДОЛГОСРОЧНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФИЦИЕНТНОСТИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКИСТАНА

**Умаралиев Олимжон**

*Гулистанский государственный университет*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы устойчивого развития сельского хозяйства в регионах Узбекистана, инновационной деятельности и эффективности управления в устойчивом сельском хозяйстве.

**Ключевые слова:** инновационная модель, эффективность, устойчивое сельское хозяйство, инновационные идеи, инновации, инфраструктура, цифровые технологии, агросервисы, сельское хозяйство, инновационное развитие, экономические перспективы.

## LONG-TERM TRENDS OF ECONOMIC EFFICIENCY IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN

**Umaraliyev Olimjon**

*Gulistan State University*

**Abstract.** This article covers the issues of sustainable development of agriculture in the regions of Uzbekistan, innovative activities and management efficiency in sustainable agriculture.

**Keywords:** innovative model, efficiency, sustainable agriculture, innovative ideas, innovation, infrastructure, digital technologies, agroservices, farming, innovative development, economic prospects.

### **Kirish.**

Bugun rivojlanishning innovatsion modellari va “aqli” texnologiyalar amalga oshirilayotgan mamlakatlar eng muvaffaqiyatli va barqaror hisoblanadi. Bunday mamlakatlarning barqaror taraqqiyoti, ularning jahon bozorlarida raqobatbardoshligi tabiiy resurslarni eksport qilish va jismoniy mehnatdan foydalanishga emas, balki innovatsion g'oyalari va ishlanmalarga asoslanadi.

Jahon tajribasi barcha sohalarda sifatli o'sishni ta'minlovchi yangiliklarni uzluksiz tarzda amaliyotga joriy etish jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanganligini ko'rsatmoqda.

Innovatsion rivojlanishning asosiy vazifasi innovatsiya va fan yutuqlarini keng joriy etish hisobiga mamlakatning iqtisodiy o'sishi va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlash hamda iqtisodiyotda intellektual ulushning ko'payishi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida innovatsiyadan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va istiqbollari tizimli tahlil qilindi. Ishda iqtisodiy tahlil, statistik ma'lumotlarni solishtirish, kuzatish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tajribalar o'rganilib, ularning o'ziga xos jihatlari tahlil asosida umumlashtirildi. Tadqiqot natijalari barqaror qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikning uzoq muddatli tendensiyalari va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Innovatsiya iqtisodiy adabiyotlarda quyidagicha tavsiflanadi. Innovatsiya – innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi bo'lib, yangi yoki takomillashtirilgan ko'rinishda yuzaga chiqqan va bozorga kiritilgan mahsulot, amaliy faoliyatda qo'llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon, eng so'nggi tadqiqotlar yoki ixtirolarning natijalariga asoslangan tarzda ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv sifatida talqin etiladi.

Innovatsion faoliyatni amalga oshirish va amaliyotga joriy etishda, eng avvalo asosiy termin va tushunchalarni aniqlashtirish lozimdir. Innovatsion jarayonlarning ta'rifini, turlarini va umuman innovatsion faoliyat nazariyasiga muhim hissa qo'shgan olim sifatida avstraliyalik iqtisodchi-olim Yozef Shumpeterni (1982) ta'kidlab o'tiladi. Innovatsiya haqida fikr yuritilmagan, ammo iqtisodiyotni rivojlantirishda “samarali usul”, “yangilik”, “ta'siri”, “qo'llash” kabi tushunchalardan foydalanilgan.

“Yangilik”, “yangilik kiritish”, “ilmiy-texnik yangilik” kabi atamalar Porter (1993), Brayt (1985), Tviss (1989) kabi olimlarning tadqiqot ishlarida ham uchratishimiz mumkin.

Shu bilan birga innovatsiyaga bir nechta iqtisodchi olimlar o'z fikr mulohazalarini bildirishgan. Masalan, Santo (1990) innovatsiyaga quyidagicha ta'rif bergan: “Innovatsiya - bu ijtimoiy-texnik-iqtisodiy jarayon bo'lib, g'oya va kashfiyotlardan amaliy foydalanish orqali o'z hususiyatiga ko'ra yaxshiroq bo'lgan mahsulot va texnologiyalar yaratilishiga olib keladi, agarda u iqtisodiy foyda olishga yo'naltirilgan bo'lsa, uning bozorda paydo bo'lishi qo'shimcha daromad olish imkoniyati vujudga keladi”.

Vodachek, Vodachkova (1989) fikriga ko'ra, innovatsiya bu, korxonaning ish faoliyatidagi tizim sifatidagi maqsadli o'zgarish bo'lib, korxonaning u yoki bu faoliyat sohasida miqdoriy va sifat o'zgarishlarida namoyon bo'lishi mumkin.

Lapin (1981) esa innovatsiya deganda insonlarning ma'lum extiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida yangi amaliy vositalarni (innovatsiyalar) yaratishdagi jarayonlar majmuasini tushungan.

Balabanov (2001) fikriga ko'ra, innovatsiya yangi texnika, texnologiyalarga, ishlab chiqarishni, mehnatni, xizmat ko'rsatish va boshqaruvni tashkil etishning yangi shakllariga, shu jumladan, nazorat, hisob, rejalashtirish usullari, tahlil qilish va boshqa yangi shakllarga kapital quyilmalarni qo'yish hisobiga olingan moddiylashgan natijani tashkil etadi.

Fatxuddinov (2005) quyidagicha ta'riflaydi: "Innovatsiya – boshqaruv ob'ektini o'zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik yoki boshqa bir samarani olish maqsadida joriy etilgan yangilikning yakuniy natijasi".

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Barqaror qishloq xo'jaligida ilmiy izlanishlarda asosiy ustuvor sohalardan biri bo'lib, yer, suv resurslari va biologik xilma-xillikdan oqilona foydalanish hamda uning o'rnini to'ldirish tizimini takomillashtirish, samarali agrotexnologiyalar, genetik resurslar va ilg'or ilmiy yutuqlardan unumli foydalanish asosida qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollarining sermahsul nav hamda zotlarini yaratishga qaratilgan ilmiy ishlanmalarga talab yuqoriligi hamda agrosanoat majmuasini zamon talablariga moslab tubdan qayta takomillashtirish va sohaga ko'proq innovatsiya olib kirish zarurligini ko'rinib turibdi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida to'xtalib o'tdi. Ya'ni, "...ma'lumki, hozirgi kunda yurtimizda 51 foizdan ziyod aholi qishloq joylarda yashaydi. Biroq qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 20 foizdan oshmaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hajmi esa 10 foizga ham yetmaydi. Holbuki, rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqish lozim.

Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal etish, genetik modifikatsiya qilingan mahsulotlar yetishtirmasligi bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ma'lumki, mamlakatimiz to'qimachilik sanoati 1 million 400 ming tonnagacha paxta tolasini qayta ishlash imkoniyatiga ega. Bu respublikamizdagi tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar ehtiyojini to'liq qoplay oladi. Lekin paxta tolasini qayta ishlash sanoatini boshqarishda muammolar mavjud. Bu esa paxta xom ashyosini ishlab chiqarish va qayta ishlashda rentabellikning pasayishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan sohadagi muammolarni hal etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yanada rag'batlantirishga oid alohida farmon qabul qilindi.

To'qimachilik korxonalariga paxta xomashyosi faqat "O'zpxatasanoat" aksiyadorlik jamiyati orqali sotilar edi. Bugunga kelib esa to'qimachilik korxonalari paxta xomashyosini endi to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnoma asosida bevosita fermerlardan sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Navoiy, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida paxta-to'qimachilik klasterlarini yaratish doirasida paxta xomashyosini bozor talablari asosida yetishtirish, narx-navoni shakllantirish va sotishni tashkil etish bo'yicha tajribasi orqali boshlandi. Xozirda esa mamlakatimiz miqyosida joriy qilishgan.

Hozirgi vaqtda 1,5-2 milliard dollar miqdorida meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilinmoqda. Lekin ushbu sohada yiliga 10-15 milliard dollar mahsulot eksport qilish imkoniyati mavjud. Mahsulot tayyorlash va eksport qilishda "O'zagroeksport" aksiyadorlik jamiyati, birjalar, agrofimlar va ulgurji kompaniyalar katta rol o'ynashi lozim. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini samarali realizatsiya qilish juda muhim masaladir. Shu maqsadda fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar hajmi va miqdori haqidagi ma'lumotlarning yagona bazasini yaratish zarur.

Tadqiqotlar barqaror qishloq xo'jaligida paxtachilik, donchilik, meva-uzumchilik, sabzavot-polizchilik, chorvachilik, veterinariya va boshqa sohalarni yanada rivojlantirishga, yer, suv, mineral o'g'it va boshqa moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish, fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash kabi muhim masalalar yechimiga qaratilgan.

Shu kabilar nuqtai nazardan, O'zbekistonda suv resurslaridan oqilona foydalanish va barqaror qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etishni rag'batlantirish maqsadida Prezidentning "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-47-son qarori (2026) qabul qilindi. Hujjat suv ta'minoti cheklangan sharoitda agrar sohada samaradorlikni oshirish, resurslardan tejamkor foydalanish va zamonaviy hisobga olish mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutadi.

Qarorga muvofiq, 2027-yildan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va subsidiyalar miqdori sug'oriladigan yer maydonlarining suv bilan ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Xususan, suv bilan barqaror ta'minlanmagan hududlarda joylashgan yerlarda suv tejoychi texnologiyalar joriy etilsa, ajratiladigan subsidiyalar 1,25 oshiruvchi koeffitsient asosida hisoblanadi. Aksincha, suv bilan barqaror ta'minlangan hududlarda bunday texnologiyalar joriy qilinmagan hollarda suvdan foydalanish solig'i ikki barobar oshirilgan miqdorda qo'llaniladi.

2027-yildan sholi yetishtiriladigan maydonlarning suv kirish nuqtalariga, shuningdek baliqchilik xo'jaliklari tashkil etilgan yer uchastkalarining suv kirish va chiqish joylariga tadbirkorlar o'z mablag'lari hisobidan "aqlli" suv o'lchash va hisoblash vositalarini o'rnatishi majburiy bo'ladi. Bunday qurilmalar o'rnatilmagan taqdirda ham suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi ikki barobar miqdorda hisoblanadi.

Shuningdek, suv tejoychi texnologiyalar uskunalari ishlab chiqarish va joriy etishda raqamli nazorat tizimlarini joriy qilishdir. 2026 yil 1 oktabrdan boshlab ta'minotchi korxonalar va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan nasos hamda filtr qurilmalari maxsus QR-kodli yorliq bilan ishlab chiqarilishi, shuningdek ularga sun'iy yo'ldosh kuzatuv tizimi — GPS treker o'rnatilishi belgilandi. Shu sanadan e'tiboran suv tejoychi texnologiyalarni o'rnatish ishlari tasdiqlangan minimal talab va me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, suv tejoychi texnologiyalarni bank kreditlarini jalb qilmasdan, o'z mablag'lari hisobidan joriy etadigan tashabbuskorlar uchun subsidiya ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yiladi. Unga ko'ra, loyiha tashabbuskori belgilangan minimal talablar asosida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqadi va ta'minotchi korxonalar bilan shartnoma tuzadi. Mazkur hujjatlar asosida hisoblangan subsidiyaning 50 foizi Agrar sohada to'lovlar agentligi tomonidan oldindan ajratiladi. Texnologiyalar to'liq o'rnatilib, foydalanishga topshirilgandan keyin subsidiyaning qolgan 50 foizi ham to'lab beriladi. Agar dastlabki mablag' ajratilganidan so'ng ikki oy ichida texnologiyalar ishga tushirilmasa, berilgan subsidiya belgilangan tartibda qaytariladi.

Ushbu qaror suv resurslarini hisobga olishni raqamlashtirish, tejamkor texnologiyalarni iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish va agrar ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirishga qaratilgan kompleks mexanizmlarni belgilab berdi

O'zbekistonni ishlab chiqarishda innovatsiya va intellektual hissaning yuqori ulushi bo'lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek, qulay investitsiyaviy va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirish uchun a O'zbekiston rivojlanishning innovatsion modeliga to'liq o'tishi ta'minlanishi zarur, bunda barqaror qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning hamda davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalda joriy qilishni rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish zaruratini taqozo etadi. Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish barqaror qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan.

Barqaror qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanishi iqtisodiy rivojlanishning shunday turi ko'zda tutiladiki, bunda innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi sifatida innovatsiyalar asosiy omilga aylanadi. Innovatsion faoliyat bozorga yangi tovar yoki xizmatni olib chiqish, yangi ishlab chiqarish jarayoni (texnologiyasi) yoki tadbirkorlik modelini o'zlashtirish, yangi bozor segmentlari yaratish sifatida talqin qilinadi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'iga innovatsiyalarni qo'llash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda foydalaniladigan ijtimoiy xizmatlarning yangi yondashuvlari, iqtisodiyotning turli sohalarini yangicha shaklda tashkil etish va boshqarish, chorva mollari va parrandalarini

davolash va proflaktikaning yangi usullari, o'simlik va hayvonlarni himoyalash vositalari, dehqonchilik, chorvachilik va qayta ishlash sanoatida yangi texnologiyalar, moddiy, yangi yoki sifatli oziq – ovqat mahsulotlari, chorva mollari va parrandalar turlari va nasllari, o'simliklarning yangi turlarini ishlab chiqish va tadqiqot olib borishdagi xo'jalik amaliyotini ifodalaydi.

Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarning asosiy turlari va yo'nalishlarini tashkil qilish amalga oshiriladi, bu ularning xilma-xilligi, shakli, qo'llanilishi usullari bilan bog'liq.

Shu bois, innovatsion jarayonlarni boshqarish innovatsiyalarni turli sabablarga ko'ra tasniflashni o'z ichiga oladi va innovatsiyalarning eng muhim xususiyatlarini tavsiflovchi muhim jihatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligidagi ilmiy adabiyotlar manbalariga ko'ra to'rt xil innovatsiyalar tanlanadi: seleksion-genetik; texnik va texnologik ishlab chiqarish; tashkiliy va boshqaruv; ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu agrar sektorda innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun muhim sanaladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish uchun sanoatning innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tkazish kerak. Lekin, zamonaviy sharoitda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning innovatsion faoliyati juda past. Shuning uchun ham, qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni boshqarishning samarali mexanizmini yaratish uchun O'zbekistonning har bir mintaqasida mintaqaviy ixtisoslashtirilgan agrotexnik markazlarni yaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ushbu mintaqaviy ixtisoslashtirilgan markazining asosiy funksiyalari:

- barqaror qishloq xo'jaligida hududiy innovatsiya siyosatini shakllantirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish usullarini takomillashtirish;
- mintaqaning qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;
- qishloq xo'jalik korxonalarining innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirish;
- agrar innovatsiyalar bozorini monitoring qilish;
- innovatsion faoliyat sohasidagi qishloq xo'jaligi korxonalarining axborot-kommunikatsiya ta'minoti;
- agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsiyalardan foydalanishning mumkinligini tanlash va dastlabki baholash;
- innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlash va ularni joriy etishda konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- agrosanoat kompleksi sohasida mintaqaning rivojlanish dasturiga kiritilishi mumkin bo'lgan ustuvor innovatsion va investitsiya loyihalari bazasini shakllantirish;
- innovatsion loyihalarni amalga oshirishda maxsus soliq tartibi, imtiyozli bojxona tariflari va boshqa imtiyozlarni olishda yordam berish;
- agrar innovatsiyalarni va davlat imtiyozlarini olgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat qilish.

Kichik tovar ishlab chiqaruvchilarning birgalikdagi iqtisodiy faoliyatini tashkil etish moliyaviy va moddiy resurslarni birlashtirib, xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va ilmiy-texnika taraqqiyotida erishilgan yutuqlarni joriy etish uchun keng miqyosli ishlab chiqarishdan foydalanishga imkon beradi.

Iqtisodiy samaradorlik holati va uni oshirish imkoniyatlarini barqaror qishloq xo'jaligida ta'minlash ishlab chiqaruvchilar bilan birgalikda kichik tomorqa yerlari va chorva mollariga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari ishlab chiqarishining yangi bir shaklini tashkil etish yo'li bilan dehqon xo'jaliklarida innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini yaratilishi orqali ta'minlanishi zarur.

**Adabiyotlar / Literature / Reference:**

Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 9 oktabrdagi PF-5199-son farmoni. Xalq so'zi 10 oktabr 2017 y.

Fatxutdinov R.A. (2005) *Инновационный менеджмент*. – М.: Питер, – 448 с.

Qaror (2026) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-47-son qarori.

Балабанов И.Т. (2001) *Инновационный менеджмент: Учеб. пособие для вузов*. – СПб: Питер, – 304с.

Брайт Дж. (1985) *Управление нововведениями: Пер. с англ.* – М.: Экономика, – 280 с.

Водачек Л., Водачкова О. (1989) *Стратегия управления инновациями на предприятии: Пер. с чешск.* – М.: Экономика, – 248 с.

Лапин В.Н. (1981) *Социальные аспекты управления нововведениями // В сб.: Проблемы управленческих нововведений и хозрасчетного экспериментирования. Всероссийская научно-практическая конференция*. – Таллин, – 23 с.

Портер М. (1993) *Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран: Пер. с англ.* – М.: Международные отношения, – 896 с.

Санто Б. (1990) *Инновация как средство экономического развития: Пер. с венг./Общ. ред. и вступ.ст. Б.В. Сазонова*. – М.: Прогресс, – 296 с.

Твисс Б. (1989) *Управление научно-техническими нововведениями: Пер. с англ.* – М.: Экономика, – 271 с.

Шумпетер Й. (1982) *Теория экономического развития / Пер. с нем. В.С.Автономова, М.С.Любского, А.Ю. Чепуренко*. – М.: Прогресс, – 72 с.